

SINXRON TARJIMADA DUCH KELINADIGAN QIYINCHILIK VA MUAMMOLAR

Qodirova Aziza

2nd year master student.: a.x.qodirova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi sinxron tarjimada duch kelinadigan qiyinchilik va muammolar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ushbu fikr va xulosalar tadqiqotchilar, sinxron tarjimonlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qiyinchilik, muammo, sinxron tarjimon, pragmatik muammolar, leksik muammolar, grammatik muammolar, stilistik muammolar, frazeologik muammolar.

Annotation: The thesis deals with problems and difficulties of simultaneous interpretation and it is useful for synchronists who are going to investigate research about it.

Key words: problems, difficulties, synchronists, pragmatic problems, lexical problems, grammatical problems, stylistic problems, phraselogical problems.

Аннотация: тезис посвящена проблемам и трудностям синхронного перевода и полезна для синхронистов, которые собираются исследовать исследования по этому поводу.

Ключевые слова: проблемы, трудности, синхронисты, прагматические проблемы, лексические проблемы, грамматические проблемы, стилистические проблемы, фразеологические проблемы.

“Qiyinchilik” va “muammo” tushunchalari xatolik tushunchasiga borib taqaladi. Birinchi bo'lib Nord Christiane bu terminlarni farqlagan. Unga ko'ra, sinxronistlar tarjima jarayonida odatda duch keladigan “qiyinchiliklar” subyektiv muammolar deb hisoblanadi. Bu “qiyinchiliklar” tarjimon tarjima jarayonida duch keladigan ma'lum bir matn segmenti bo'lib, tarjimonga ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirgani uchun ham subyektiv hisoblanadi. Chunki ular bu qiyinchilikni yengib o'ishlari uchun ham ma'lum bir izlanishlar, yuqori darajadagi malaka va bilimlariga tayanadilar. “Muammolar” esa tarjima diskursida obyektiv muammodir. Tarjimon qay darajada professional, malakali bo'lmasin, ular doim ma'lum muammolarga sabab bo'ladi.¹

Tarjima jarayonida quyidagi muammolarga duch kelinadi:

1. Muqobillik muammosi
2. Pragmatik muammolar
3. Leksik muammolar
4. Grammatik muammolar
5. Stilistik muammolar
6. Frazeologik muammolar muammolar

Muqobillik muammosi. Manba til bilan tarjima tili o'rtasida mazmuniy, tarkibiy va vazifaviy jihatdan o'xshashlik muqobillik hisoblanadi. Manba matn ma'no-mazmunini yetkazib beruvchi tarjima matn til birliklari funksional jihatdan muqobillar (mos birliklar) sifatida manba matn birliklari o'rnida

¹ Nord, Christiane. 1991. Text Analysis in Translation. Theory, Methodology and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis. Amsterdam: Rodopi. 1997. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained

ishlatiladi. Til birliklari me'yoriy ma'noda ishlatilgani uchun manba tili birliklarining tarjima tilida ma'lum muqobillari mavjud bo'lib, ular har xil tarjima matnlarida o'sha birliklarning o'rin almashtiruvchilari bo'lib qo'llaniladi.

Agar biz bir necha manba matn bilan tarjima matnlarni solishtirsak, ular orasidagi mazmuniy o'xshashlik tarjima jarayonida o'zgarishi mumkinligini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, manba matn bilan tarjima matn orasidagi muqobillik manba matn kontekstining turli qismlarida qayta ishlab chiqilishiga asoslangan bo'lishi mumkin. Shunga muvofiq tarzda, tarjima muqobilliklarini bir necha turga bulish mumkin.

Dastlab manba matn bilan semantik o'xshashlik darajasi eng past bo'lgan tarjimalarni ko'rib chiqamiz. Bunday muqobillik turlari quyidagi misollarda namoyon bo'ladi:

1) Maybe there is some chemistry between us that does not mix. - Ba'zan odamlarning xarakterlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

2) A rolling stone gathers no moss. - Sayoq yursang, tayoq yeysan.

3) That is a pretty thing to say. - O'yalmaysanmi? Ushbu manba matnlar va ularning tarjimalari urtasida umumiy sema yoki o'xshash qurilmalarga duch kelmaymiz. Manba matn va uning tarjimasida til birliklarining mutlak o'xshash emasligi ularning bir narsa ekanligi haqidagi xulosaning yoxud aynan bir vaziyat tasvirlanayotganligini ifodalovchi aniq mantiqiy bog'liqlikning yo'qligidadir. Shunga qaramay, asliyat va tarjima gaplar orasida mazmun jixatdan qandaydir umumiylik borligi ayon. Bundan tashkari, tarjima jarayonida yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan axborotning kattaroq qismlarini ham kontekst saqlab qoladi. Misollardan ko'rishimiz mumkinki, manba matn va uning tarjimasida jarayonida axborotning umumiy maqsadidan, ko'zda to'tilgan yoki ko'chirma fikrdan chetga chiqish - oddiy hol. Boshqacha aytganda, axborot qabul qiluvchining xulosalari butun kontekstdan, kontekstni o'qishda hosil bo'ladigan mulohazalardan, axborotning o'ziga xos ma'no ko'lamidan chetga chiqishi mumkin. Demak, muqobillikning birinchi turida tarjimada manba matn yoki unda nima deyilganligi, qanday aytilganligi kursatilmaydi. Bunda asosiy e'tibor matndagi kommunikativ maqsadni birinchi o'ringa chiqarishga qaratilgan.

Pragmatik muammolar. Pragmatika (yunoncha pragma - harakat) - muayyan nutq jarayonida belgilar va ularning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi semiotikaning bir bo'limidir. Pragmatikaga bugungi kunda til vakillarining muayyan so'zlar va semantik konstruksiyalar yordamida o'z munosabatini bildirish va suhbatdoshning munosabatini tushunish darajasi, ya'ni mavjud vaziyatdan kelib chikib munosabat bildirish sifatida qaraladi.

Pragmatik ma'noning ta'siri bayon mazmuni va shakli uyg'unligida namoyon bo'ladi. Tarjima jarayonida pragmatik ma'noning ma'lum qismi tushib qolishi mumkin. Noytbertning fikricha, pragmatik ma'noning tarjimaga ko'chishi quyidagicha sodir bo'ladi:

1) tarjimaga ko'chishning yuqori darajasi (ilmiy-texnikaviy adabiyot va x.k.); 2) tarjimaga cheklovlar bilan ko'chish (boshqa til vakillari uchun informasion-analitik materiallar tayyorlashda); 3) asliyat pragmatikasining deyarli tarjimaga ko'chmaslik holati (matn muayyan til vaqillarigagina qaratilgan bo'lsa).

pragmatika - bu til jamoasining til birliklariga bo'lgan sub'ektiv munosabati. Ularning bu munosabatdagi komponentlari xususiyatlari tilning pragmatik xususiyati tushunchasini keltirib chiqaradi. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikdagi pragmatika tushunchasi faqatgina til birikmalarining pragmatikasi tushunchasini o'z ichiga olmaydi. Bu tushuncha ancha keng bo'lib, u yoki bu tilning kommunikativ jarayon ishtirokchilari va voqea syujeti xilma-xilligi hamda ishtirokchilarning

malakasiga ham bog'liqligini ifodalaydi. Aynan so'z ikki har xil guruh vakillari tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Misol uchun, «haqqa yetishish» birikmasi ilohiyat ilmining hadisini olgan kishilarda boshqacha tasavvur uyg'otsa, oddiy kishilarda yoki g'ayridinlarda umuman boshqacha tasavvur uyg'otadi. Tilning pragmatik muammolari referensial baholovchi ma'nolarni o'rganishga nisbatan kam tadqiq qilingan. Tarjima pragmatikasi muammosi alohida yondashuvni talab qiladigan soha hisoblanadi. Shuning uchun tarjima jarayonida matnning pragmatik xususiyatlarini inobatga olish muhim. Shu bilan birga, matnning mazmuniy uslubiy bo'yoqdorligini, syujetning ifoda darajasini hisobga olgan holda, leksikaning stilistik jixatdan o'ziga xosligini, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Leksik muammolar. Tilning semantik xususiyatlari, ularning qo'llanishi, boshqa so'zlar bilan birika olish va bog'lanish imkoniyatlari, tilning leksik tizimida «joylashish» o'rni turli tillarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, doim ham mos kelavermaydi. Ikki til orasidagi semantik tafovutning hamma holatlarini birdek qamrab olish mumkin bo'lmaganligi sababli, biz uni tipik xususiyatlariga qarab o'rganamiz. Ingliz va o'zbek tillaridagi leksik muvofiqlik turlari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1. To'liq leksik muvofiqlik.
2. Qisman leksik muvofiqlik.
3. Umuman mos kelmaslik.
4. To'liq leksik muvofiqlik.

To'liq leksik muvofiqlik - ingliz va o'zbek tillarida kamdan-kam uchraydigan xolat. Odatda, ular quyidagi leksik guruxlarga tegishli bo'ladi: 1) atokli ot va geografik joy nomlari; 2) ilmiy va texnik atamalar; 3) oy, hafta, kun va sonlar.

Qisman leksik muvofiqlik. Tarjima amaliyotida leksik birliklarning qisman mosligi ko'p ko'zatiladi. Qisman moslik manba matndagi so'zning tarjima tilida bir qancha muvofiqliklari mavjud bo'lganda ro'y beradi. Tarjimaning leksik muammolarini o'rganishning muhim jihati bo'lajak tarjimonlarni puxta tayyorlash, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini bilish, ko'nikmalarini ishlab chikishdan iborat. Tarjima jarayonida vujudga keladigan leksik muammolar, ularning to'liq, qisman va umuman mos kelmaslik darajalarini o'rganib chikish, to'liq leksik muvofiqsizlikda qo'llaniladigan metodlarni to'g'ri qo'llay bilish tarjima sifatining oshishiga ko'maklashadi. Bu borada muqobilsiz leksika, ya'ni xos so'zlar tarjimasini masalasini chuqur o'rganish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Makhmudovich, T. M. ., & O'rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 46–49. <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
2. Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 5, 62–67. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>
3. Tursunov Mirzo Makhmudovich, & Akhmedova Gulmira Okhunjonovna. (2022). Analysis of Conceptual Metaphors Used in British Politicians' Speeches. Eurasian Research Bulletin, 7, 43–48. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1015>

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

4. 4. Umidullayevna, Saidova Mukhayyo. "SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH POETIC TERMS IN LITERARY DICTIONARIES." RESEARCH AND EDUCATION 1.1 (2022): 38-46.<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/682>
5. Саидова, Мухайё. "Inglizcha poetik terminlarning o'zbek tilida berilishida shakl va mazmun munosabati." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 13.13 (2022).https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6714
6. Saidova, M. U. The problem of studying literary terms on figurative language.https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=9219256601546054307
7. Saidova, M. U. (2020). LEXICOGRAPHIC AND ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY.<https://namdu.researchcommons.org/cgi/viewcontent.cgi?article=2723&context=journal>
8. Саидова, М. (2021). THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS. ЛУЕАТИДАГИ ДРАМА АДАБИЙ ТУРИГА ХОС ТЕРМИНЛАРИНИНГ МАЗМУНИЙ ТАДЛИЛИ//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4453